

**O'smir yoshidagi o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida
tarbiyalashning psixologik mohiyati**

**O'ktamova Shohista Odilbek qizi – UrDU Psixologiya(f.t.b) mutaxassisligi
1- bosqich magistranti**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning psixologik mohiyati to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyat, qadriyat, an'ana, tarbiya, odob-axloq, ta'lim jarayoni.

Annotation. Psychological feature of teaching students on the basis of national customs during the educating process is depicted in the following article.

Key words: national value, value, tradition, education, moral, education process

Аннотация. В данной статье обсуждаются мысли о психологической природе воспитания учащихся на основе национальных ценностей в образовательном процессе.

Ключевые слова: национальная ценность, ценность, традиция, воспитание, нравы, образовательный процесс.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va jahon hamjamiyati tomonidan rivojlangan davlat sifatida o'rin olish vazifasi qo'yildi. Albatta yurtimizda jahon talablariga mos keladigan, har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar, fidoiy insonlarni tarbiyalab yetishtirishda ta'lim muassasalarida o'qitishni yanada yuksak bosqichga ko'tarish, uning tarbiya bilan uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

Barkamol insonni tarbiyalashda umumbashariy qadriyatlarimiz, ma'naviyat sohasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun o'tgan davr ichida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan juda katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasiga e'tibor berilayotgan bo'lsada, bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Tadqiqot ishlari, ilmiy izlanishlarda ko'proq ta'limiy muammolar, yangicha o'qitish texnologiyalari mavzulari ustida bahs yuritilmoqda. Aslida, o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash birinchi masala darajasiga olib chiqish, maqsadga muvofiqdir. Chunki jamiyat ravnaqi uchun faqat nazariy bilimlarga ega bo'lgan, mexanik mashina singari vazifalarini bajaruvchi

kasb egalari emas, balki, eng avvalo chuqur his-tuyg'uli, yuksak ma'naviy- axloqiy fazilatlariga ega shaxslar zarur.

Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarimiz, axloq-odob, madaniyatimiz qayta tiklanib, ta'lim-o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlari mazmunining asosiga aylandi. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod o'z milliy qadriyatlarini, axloq-odob madaniyatini o'zlashtirishi va ularga hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina u o'z yurtining haqiqiy vakili degan ulug' unvonga ega bo'ladi.

O'zbek xalqi tarixan o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash sohasida o'ziga xos maktab yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Bugungi kundagi o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etishda uning o'rni beqiyosdir.

Qadriyatlar mohiyati jihatidan moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'linadi. Inson kuchi, aqli-zakovati bilan yaratilgan tabiat go'zalliklari, arxitektura, san'at va madaniyat asarlari - barchasi moddiy, ya'ni noosfera qadriyatlar jumlasiga kiradi. Axloq odob, bilim, ilm, malaka, iymon, insof, e'tiqod va boshqalar ma'naviy qadriyatlar. Moddiy va ma'naviy qadriyatlar bir-biri bilan bog'liqdir. Ular o'z navbatida, quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

Qadriyatlarning bu turiga iqlim sharoiti, tabiat go'zalliklari, milliy-davlat ahamiyatiga molik bo'lgan qo'riqxonalar, tabiatning inson yashashi, mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan sharoit va imkoniyatlari kiradi. Tabiiy muhit sharoiti va imkoniyatlari ham inson ehtiyojlari, yashash imkoniyatlari bilan taqozolangan taqdirdagina qadriyat, deb baholanadi. Shu ma'noda olib qaraganda, tabiat sharoitlarini qadriyat deb qarash unga ma'lum maqsad va manfaat asosida yondashayotgan inson tomonidan berilgan bahodir. Tabiatning inson manfaati asosida o'zlashtirilgan, o'zgartirilgan qismi ham qadriyatdir.

2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar.

Bu qadriyatlar asosan ob'ektiv taraqqiyot va sub'ektiv ruhiyatning ifodasi bo'lib kishilarning o'zaro munosabatlarida, turmush tarzi va faoliyatida, yurish-turishida, axloqi va odobida ko'zga tashlanadi. Axloq, insonning ichki ruhiy e'tiqodi, odob esa uning amalda namoyon bo'lishidir.

Turli urf-odatlar, marosimlar kishilarning kundalik turmush tarzida, axloqiy qadriyatlar esa ularning yurish-turishi, o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy kamolotni o'zida mujassamlashtirgan inson ham oliy qadriyat hisoblanadi.

3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

Bu qadriyatlar insonning mehnat malakalari, ijtimoiy qiziqishlari, mehnat mahsuloti turlarini yaratish sohasidagi amaliy imkoniyatlari, bilimi, iste'dodi va qobiliyatlaridir. Rassom qo'linda qalam ushlagani uchun emas, balki tajribada shakllangan bilim va iste'dod egasi bo'lgani uchun ham buyuk san'at asarlarini yarata oladi.

4. Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, xayrixohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'layotgan qadriyatlar.

5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar ¹.

Albatta, qadriyatlarning bu turkumini alohida ajratib olib qaramasa ham bo'ladi. Lekin inson hayotining turli davrlari, faoliyat sohaslariga nazar tashlar ekanmiz, bu sohalarda ham e'tiborga sazovor bo'lgan qadriyatlar va ularning mezonlari borligini ko'ramiz.

Yoshlar va keksalar, erkaklar va ayollar, turli kasb egalari uchun xos bo'lgan qadriyatlar ham mohiyati jihatidan jamiyat va inson kamoloti uchun xizmat qiladigan ma'naviyatdir.

Yuqorida bayon etilgan qadriyatlar, o'z navbatida, milliy, mintaqaviy, milliy, diniy qadriyatlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlar jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'langanligining ifodasidir².

Milliy qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qat'iy nazar, milliy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, ma'naviy kamolotning muayyan yo'llari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir.

Milliy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'prik vositasini o'tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch

¹ Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi; Umum ta'lim maktablari uchun. – Toshkent:

O'qituvchi, 1996. – 192 b.

² O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. - Toshkent : Qomuslar bosh tahririyati, 1997. – 789 b

vazifasini o'taydi. Ma'naviyat borasida ham milliy qadriyatlar barcha xalqlarning madaniyatini yaqinlashtiradi va ularni tezroq kamol topishga imkon yaratib beradi.

Milliy qadriyatlar inson ma'naviy, ijtimoiy kamolotining qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas. Milliy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Milliy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi, ular ayni vaqtda barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat kalish, atrof-muhitni toza saqlash milliy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir³.

Bu qadriyatlar butun insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo'lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish ishiga ham xizmat qiladi. Bu borada biror chekinishlarga, milliy mahdudlik va qalondimog'likka yo'l qo'yish nihoyatda katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Milliy qadriyatlar mahalliy sharoit, imkoniyatlar, tarixiy an'analar bilan bog'langandagina kerakli samara beradi.

Mintaqaviy qadriyatlar ham milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan.

Qadriyatlarning bu turkumi bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo'lgan mamlakatlar va xalqlarda uchraydi. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'rta Osiyo xalqlari ming yillar davomida bir-biri bilan yaqindan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatganlar. Ularning turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlarini bir-biriga yaqin bo'lishi ko'plab umummintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu qadriyatlar turli joylarda bir-biridan biroz farq qilsada, mohiyat jihatidan yaqindir. Mehmondo'stlik, bolajonlik, yaqin qo'ni-qo'shnichilik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, sahiylik, halol bilan haromni farqlash O'rta Osiyo xalqlarining hammasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlaridir. Garchand

³ Safarboev M. Tarix vositasida milliy g'ururni tarbiyalash.// - Toshkent : Xalq ta'limi. - 2004. № 3. 4 - 7 bet.

mehmondo'stlik bilan bog'liq udumlar mintaqamizning hamma yerida keng tarqalgan yaxshi an'ana bo'lsa ham ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi.

Keksalarni, ota-onani hurmat qilish ham O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga xos yuksak ma'naviy boyligidir. Keksalar ko'pni ko'rgan, aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o'rganish ma'naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand nasihatiga quloq solish ham katta ma'naviy qadriyatdir. Ota-ona hech vaqt o'z farzandiga yomonlik ravo ko'rmaydi. Ular hayotda ko'p og'irlik, yengilliklarni ko'rgani sababli, farzandlarining istiqbolini ham ulardan ko'ra ko'proq o'ylaydilar. Ba'zan ota-onalarning nasihatlari noqobil farzandlarga og'irroq tuyuladi. Bu hayotni bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga yengil-elpi qarashning oqibatidir.

Farzandlar ota-onaning qadrini o'zlari ota-ona bo'lganidan keyingina fahmlab oladilar. Bu davr ichida ular ma'naviy kamolotning ko'p imkoniyatlarini qo'ldan boy berib qo'yadilar. Shuning uchun ulkan ma'naviy qadriyat bo'lmish ota-onani hurmat qilish odatini aslo unutmaslik kerak.

Ota-onaga bo'lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni e'zozlash boshqa hamma joylardagiga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, uy joylarni ta'mirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, yetim-esirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir⁴.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana biri - jamoatchilik fikridir. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o'zaro hurmatning ifodasi bo'lib, keng foydalanish mumkin bo'lgan qadriyatdir.

Qadriyatlarning eng muhim turlaridan yana biri - milliy qadriyatlardir.

Milliy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlar bilan birlikda mavjud bo'ladi. Milliy va mintaqaviy qadriyatlar milliy qadriyatlarning ko'p tomonlarini o'z ichiga oladi. Milliy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlar ta'sirida keng rivojlanish, takomillashish imkoniga ega bo'ladi. Ular o'rtasidagi muntazam davom

⁴ Isoqova M.T. Milliy an'analar va ijtimoiy omillar ta'sirida o'spirinlarda ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish. Fan nomzodi...diss. Avtoref., - Toshkent: - 1999. -118 b

etib boradigan dialektik munosabat jahon sivilizatsiyasi rivojlanishining muhim omillaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi har bir millat-ning o'ziga xos tarixi, tili, madaniyati, axloqiy va psixologik fazilatlarini, yashash sharoiti, turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'langandir. Milliy qadriyatlarning har bir ko'rinishini uzoq tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin.

Millat mavjud ekan, milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. Umuman olganda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir. Har bir millat o'z qadriyatlarini rivojlantirishi va ularga amal qilishida milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usining ahamiyati kattadir. Milliy ruhiyat va ma'naviyatdan mahrum bo'lgan kishilardagina o'z tili, tarixi, an'alariga nigilistik munosabatda bo'lishi mumkin. Agar shunday ahvol ma'lum siyosat ta'sirida kengayib borsa, millat birligi va kamoloti uchun nihoyatda xatarli bir hol yuzaga keladi.